



## Кодекс корпоративной этики

Yangilangan sana: Tue, Dekabr, 11, 2018

# Korporativ etika kodeksi

Mazkur Korporativ etika Kodeksining maqsadi Bank, uning mintaqaviy bo'linmalari va muassasalarining foyda ko'rish darajasini, moliyaviy barqarorligi va unumdorligini oshirishga qaratilgan Aksiyadorlik tijorat Xalq bankining faoliyati standartlarini belgilash hisoblanadi

Kodeks xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ish muomalasi odatlari asosida ishlab chiqilgan. Kodeks rahbarlar va xodimlarning o'zaro muomalasining asosiy qoidalari, Bank xodimlarining o'zini tutishi qoidalari, ularga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi.

Mazkur Qoidalar Bankning muvaffaqiyatli biznes yuritishga imkon beruvchi etika, qonuniylik tamoyillariga sodiqligini tasdiqlovchi Korporativ standartlarining majmuidir.

### **Kasbiy mahorat.**

Bank mijozlarga va hamkorlarga xodimlarning malakali bo'lishini kafolatlaydi. Bank xodimlarning kasbiy mahoratning eng yuqori bosqichiga intilishini qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

### **Sifat.**

Taqdim etiladigan xizmatlar sifatining kafolati — Bank ishining uslubidir.

### **Ishonchlilik**

Bank faoliyatining zamirida vijdoniylik, halollik, mas'uliyat yotadi.

### **Guruh ruhi**

Guruh — bu umumiy maqsad bo'lib, har bir xodimning ushbu maqsadga erishishga qo'shgan betakror hissasi va kasbiy mahoratidir. Bank xodimni umumiy maqsadga erishishga qo'shgan hissasi uchun qadrlaydi.

### **Xodimlarni rivojlantirish.**

Xodimlar — Bankning boyligi, uning bozor aktividir. Bank xodimlarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

### **Innovatsion yondashuv.**

Bank yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratadi, ishida ijodiy yondashuvlarga amal qiladi, ijobiy o'zgarishlarga xayrixoh bo'ladi va doimo ular uchun ochiq bo'ladi.

**Mijozlar bilan o'zaro munosabatlar:** Bank Mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuksak standartlariga

intiladi, har bir Mijozning manfaatlarini himoya qiladi. Bank Mijozlar bilan uzoq muddatli va o'zaro foydali hamkorlikka intiladi. Bank doimo o'z xizmatlarini yangilab boradi, shuningdek yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqadi va taklif etadi. Mijozlar bilan o'z munosabatlarida Bank ochiqlik va o'zaro ishonch tamoyillariga tayanadi.

Bank xodimlari Mijozlar va ish hamkorlarining operatsiyalari, hisobraqamlari va omonatlari to'g'risidagi axborotlarni, shuningdek Mijozning, ish hamkorining ish obro'siga, boshqa moddiy yoki nomoddiy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa axborotlarni, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, sir saqlaydi.

Bank xodimlari Mijozlarga, ish hamkorlariga yashirin imtiyozlar va afzalliklarni yaratib bermaydi

**Ta'sischi bilan o'zaro munosabatlar:** Bank ochiq-oshkor siyosatni amalga oshiradi va korporativ boshqaruv tamoyillariga qat'iy amal qiladi. Chunonchi: Ta'sischi bilan manfaatlariga so'zsiz rioya qiladi, o'z vaqtida axborotni oshkor etadi, hisob va hisobot sifatini yaxshilash asosida axborotning ko'rgazmaliligi va foydalanish osonligini yuksaltiradi.

**Xodimlar bilan o'zaro munosabatlar:** Bank xodimlari Bankning muvaffaqiyatli faoliyatining asosidir. Bank o'z xodimlarini qadrlaydi, har bir xodimga o'z salohiyatini eng to'liq ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi sharoitlarni yaratadi. Bank yoshi, irqi, jinsi, e'tiqodi yoki millatidan qat'i nazar xodimlarni jalb qiladi va eng yaxshi xodimlarni olg'a surib, ularni erishgan yutuqlari uchun taqdirlaydi. Bank shaxsni va inson qadr-qiyamatini hurmat qiladi. Bank xodimlari Bankning ish obro'siga, boshqa nomoddiy yoki moddiy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning yuzaga kelishga yo'l qo'ymaydi .

**Raqobatchilar bilan o'zaro munosabatlar:** Raqobatchilari bilan o'zaro munosabatlar odobli ish munosabatlari asosida barpo etiladi. Bank uchun yagona maqbul raqobat shakli taqdim etiladigan xizmatlarning sifati, ishonchliligi va servis darajasi borasida xolisona bozor afzalliklarini yaratish hisoblanadi.

**Davlat organlari bilan o'zaro munosabatlar:** Bank moliyaviy-sanoat guruhlarini, siyosiy partiyalar va birlashmalarga nisbatan neytralitet tamoyillariga amal qiladi hamda o'z faoliyatini Mijozlar va ta'sischi bilan manfaatlarida amalga oshiradi. Bank xodimlari davlat organlari bilan ishlarini shaxsiy manfaatdorliksiz, ma'muriy qarorlarni qabul qilishga ta'sir o'tkazishning noqonuniy usullaridan foydalanmay yuritishi lozim.

---